

TURKISTONDA MA'RIFATGA CHORLOVCHI JADIDLAR HARAKATI

Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi

G-mail: usmonovsalohiddin1@gmail.com

Telefon raqam: +998 99 073 99 62

Normurodova E'zoza Rafiq qizi:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "pedagogika va tillarni o'qitish" fakulteti 1-bosqich talabasi

G-mail: ezoza2302@gmail.com

Telefon raqam: +998 94 939 99 07

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18514949>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar harakatining mohiyati va jadidlarning xalqni ma'rifatga chorlovchi shaxslar sifatidagi faoliyati yoritiladi. Ular ta'limni isloh qilish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali jamiyatni uyg'otishga intildilar. Jadidlarning milliy taraqqiyotdagi o'rni va tarixiy ahamiyati qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Jadidlar, jadidchilik, ma'rifat, ta'lim, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, ilm-fan, madaniyat, matbuot, adabiyot, ziyolilar, ijtimoiy taraqqiyot.*

THE JADID MOVEMENT CALLING FOR ENLIGHTENMENT IN TURKESTAN

Abstract: This article discusses the essence of the Jadid movement and the activities of the Jadids as people who called for enlightenment. They sought to awaken society through educational reform, the development of science and culture. The role and historical significance of the Jadids in national development are briefly analyzed.

Keywords: *Jadids, Jadidism, enlightenment, education, new method schools, national revival, science, culture, press, literature, intellectuals, social development.*

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДОВ ПРИЗЫВАЕТ К ПРОСВЕЩЕНИЮ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность движения джадидов и деятельность джадидов как людей, призывавших к просвещению. Они стремились пробудить общество посредством реформы образования, развития науки и культуры. Кратко анализируется роль и историческое значение джадидов в национальном развитии.

Ключевые слова: *джадиды, джадидизм, просвещение, образование, школы нового метода, национальное возрождение, наука, культура, пресса, литература, интеллектуалы, социальное развитие.*

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general gubernatorlaridan biri A. N. Kuropatkinning o'z kundaliklarida, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, degan so'zlari yaqqol anglatadi.

Ma'rifatchilik asosan uch soha orqali tezkor tarzda taraqqiy etib bordi. Bular -maorif (yangicha maktab ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilmiy - ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning

axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida samarali islohotlar qilindi.

Sho'rolar davri "madaniy inqilobchilari" ning asl maqsadini anglagan ma'rifatparvarlar Mahmudxo'ja Behbudiy, Said Rizo Alizoda, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalarning sho'ro mustamlakachilariga qarshi olib borgan goh oshkor, goh pinhona kurashlari ularning ilmiy, siyosiy, adabiy asarlarida o'z ifodasini topdi. Ular jahon ilm-faniga o'nlab daholarni yetkazgan ko'xna Turkiston o'z zamoniga xos va mos o'quv tizimini yaratganligini isbotlashga, ilm-ma'rifatga bo'lgan muhabbatlarini erk tuyg'usiga hamohang tarzda ifodalashga intildilar.

Turkiston ma'rifatparvarlari orasida mashhur bo'lgan mutafakkir, ta'limshunos, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniy (1887-1934). Uning XX asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan "Turkiy Guliston yoxud axloq (1913)" asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai-nazaridan yondashishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilganligi bilan ajralib turadi. Agar Anbar otinning "Qarolar falsafasi" risolasida dolzarb axloqiy muammolarga majoziy - falsafiylik, ilmiy, nazariy xulosalar orqali yoritilsa, Avloniy asarlarida fazilat va illatlarga ko'proq ta'rif berish, ularni sharhlash yo'li bilan yondashiladi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida an'anaviy - falsafiy yondashuv bo'lmish antropologik nuqtai-nazar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Ammo bu yondashuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot obyektini sifatida makon va zamondagi umumiy mavhumiy inson emas, balki muayyan XX asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o'rta tashlanadi.

Faylasuf, pedagog, avvalo, millatni tarbiyashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar - to'ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar - o'zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa - darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari ta'lim - tarbiya tizimini rivojlantirish, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo'lga olishi kerak. Avloniy Rossiya hukumati u yer - bu yerda yangicha maktab ochgani - shunchaki jahon jamoatchiligini chalg'itish ekanini, ochiq bo'lmasa ham, quyidagi ishora bilan aytib o'tadi: ".....hukumat hammaning otasidir. O'z fuqarosining bolalarini tarbiya qilgan lozim. Shuning uchun bizning Rusiya hukumatomiz o'gay bo'lsa ham, har yerda bizlar uchun maktablar ochub, bolalarimizni tekin o'qitur." Avloniy ana shu "o'gay tarbiyadan" ko'ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va o'z davrini "Tarbiyaning zamoni - tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hamon o'z kuchini yo'qotmaganligini, tarbiya - hozir ham jamiyat uchun dolzarb muammo ekanini Prezident Islom Karimov mashhur nutqlaridan birida (1995-yil 23-fevral) Avloniydan mana bunday deb ko'chma keltiradi: "Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir".

Tezkor tarzda maydonga kirib kelayotgan yangicha ta'lim mohiyatini anglagan Abdulla Avloniy mahalliy ziyolilar orasida birinchilar qatorida Toshkentning Mirobod mahallasida yangicha usuli jadid maktabini ochdi va unga sobiq madrasa mudarrislarini ishga taklif qiladi. Shu bilan birga u eski va yangi ta'lim tizimi o'rtasida o'zi kabi ikkilanib qolgan muallimlarning

ahvolini o'tkir xis etadi , yangi hukumatning yoshlar tarbiyasidagi vazifasini ham anglashga harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar xalqni ma'rifatli qilish, milliy ongni uyg'otish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash yo'lida katta xizmat qildilar. Ularning ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi islohotchi g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jadidlar merosi yosh avlodni ilmi, vatanparvar va ongli qilib tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Madrasalar ta'limi tarixidan lavhalar. Monografiya. Mahkamoy Tursunova. "Mumtoz so'z" nashriyoti. Tosh, 2017
2. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) Rustambek Shamsutdinov. Baxtiyor Rasulov. O'quv qo'llanma
3. Samarqand tarixi. 2 tomlik II tom. Mas'ul muxarrir I.M.Mo'minov. Tosh, "Fan", 1970 (O'zSSSR FA Tarix va arxeologiya in-ti A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat un-ti)T: 2.Ulug' oktyabr sotsialistik revolutsiyaning g'alabasidan to shu kungacha.
4. Turkiston ma'rifatchi jadidlarining axloqiy qarashlari. Referat